

YOSHLAR KAMBAG'ALLIGI: SABABLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI 1-BOSQICH TALABASI

O'ralova Ruxshona Zafar qizi

@ruxshona.dtp. uz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
1-bosqich talabasi

Omonova Nargiza Ramazon qizi

omonovanargiza122@

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirish masalasiga nazariy va zamonaviy yondashuvlar asosida yondashilgan. Kambag'allikni kamaytirish bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy strategiyalar, shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalangan holda kambag'allikni kamaytirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada kambag'allikni qisqartirishda iqtisodiy islohotlar, barqaror rivojlanish dasturlari va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Nazariy qarashlar va zamonaviy metodlarning birgalikdagi qo'llanilishi kambag'allikni samarali kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, iqtisodiy islohotlar, barqaror rivojlanish, inson kapitali, zamonaviy yondashuvlar, nazariy qarashlar.

YOSHLAR KAMBAG'ALLIGI: SABABLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI**KIRISH**

• Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) UNICEF bilan birgalikda O'zbekistondagi yoshlarning monetar kambag'alligi darajasini baholadi. Tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimining kambag'allik darajasiga ta'siri tahlil qilindi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ijtimoiy nafaqalar bo'lmasa, mamlakatda bolalar kambag'alligi darajasi 1,6 baravar oshadi.

• 2024 yil 1 aprel. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi BMT Bolalar jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda bolalar o'rtasidagi kambag'allik darajasini baholash, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini tahlil qildi.

• Yoshlarning kambag'allik darajasi Statistika agentligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan uy xo'jaliklari byudjeti o'rganish ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

• 2021 yilda o'tkazilgan so'rovda 10 ming xonadon ishtirok etgan bo'lsa, 2023 yilda mamlakat bo'ylab 16 mingdan ortiq oila o'rganildi.

• O'zbekistonda uch yil ichida bolalar kambag'alligi 7,8 f.p. kamaydi.

• Natijalarga ko'ra, bolalar kambag'alligi darajasi 2021 yildagi 21,5%dan 2023 yilda 13,7%gacha kamaydi.

• Kambag'allikni kamaytirish tendensiyalari shahar va qishloq joylari o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, qishloq joylarda bolalarning kambag'allik darajasi 24,6%dan 14,5%gacha, shaharlarda esa 18%dan 13%gacha kamaydi.

• Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolalar kambag'alligi darajasi eng past bo'lgan hududlar Navoiy viloyati va Toshkent shahri bo'lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa bolalar kambag'alligining nisbatan yuqori ekanligi qayd etilgan

- Ijtimoiy to'lovlarni tahlil qilish

• Ijtimoiy himoya Milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda O'zbekistonda ijtimoiy nafaqalarning umumiy qamrovi 10,8 mln kishini tashkil etdi.

• Kam ta'minlangan oilalarni bolalar nafaqalari va moddiy yordam bilan qamrab olish – 2,1 millionta kam ta'minlangan oiladan 9 million nafar kishini va 72,5 ming benefitsiar oilani tashkil etadi, umumiy to'lovlar miqdori 12,3 trilliong teng.

• Ijtimoiy himoya tizimiga investitsiyalar samaradorligini, shuningdek islohotlarning samaradorligi va ta'sir darajasini oshirish maqsadida Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi turli uy xo'jaliklari guruhlari o'rtasida ijtimoiy to'lovlarning taqsimlanishi tahlil qildi.

• Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va maqsadliligi ijtimoiy nafaqalarning taqsimlanishi, qamrovi va yetarliligi hamda ularning kambag'allik darajasiga ta'sirini tahlil qilish orqali baholandi.

• Mutaxassislarining ta'kidlashicha, mavjud ijtimoiy himoya tizimi resurslarning salmoqli qismini aholining eng kam ta'minlangan qatlamlariga yo'naltiradi. Xususan, hisob-kitoblarga ko'ra, aholining 20%ini tashkil etadigan eng badavlat oilalar guruhi umumiy ijtimoiy nafaqalarning deyarli 6%ini, shu jumladan bolalar nafaqasi oladigan uy-xo'jaliklarining 4%iga to'g'ri keladi.

• Aksincha, keksa yoshdagi pensiyalar aholining barcha guruhlari o'rtasida nisbatan teng taqsimlanadi, bu keksa aholini ta'minlashga universal yondashuvni aks ettiradi.

- Ijtimoiy yordamning kambag'allik darajasiga ta'siri

- Tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimining kambag'allik darajasiga ta'siri tahlil qilindi.

• Shunday qilib, daromad yetarli bo'lmagan taqdirda, daromadlar kambag'allik chegarasidan past bo'lsa, ijtimoiy o'tkazmalarning yetishmasligi kambag'allik darajasini 11%dan 20,8%gacha, bolalar kambag'alligini – 13,7%dan 21,8%gacha va kambag'al pensionerlar ulushini – 7,3%dan 31,4%gacha oshiradi.

• Umuman olganda, ushbu tahlil ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy imtiyozlardan teng foydalanishni ta'minlash va jamiyatdagi kambag'allik darajasini pasaytirish uchun uni takomillashtirish choralari taklif qilish imkonini beradi.

• Shunday qilib, O'zbekiston barqaror rivojlanishning birinchi maqsadi – 2030 yilgacha kambag'allikni barcha shakllarda bartaraf etishga sodiqligini namoyish etmoqda. Shu munosabat bilan, monetar bolalarining kambag'alligini o'lchash ushbu missiyani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

Kambag'allikni qisqartirish murakkab jarayon bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillarni kompleks tarzda tahlil qilishni talab qiladi. Bu jarayonning konseptual asoslari quyidagi tamoyillar va yondashuvlarga asoslanadi: 1. Ijtimoiy adolat tamoyili. Ijtimoiy adolat tamoyili kambag'allikni qisqartirish jarayonida asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu tamoyil har bir shaxsning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashni maqsad qiladi. Ijtimoiy adolat nafaqat resurslarni adolatli taqsimlashni, balki ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. 2. Resurslarni adolatli taqsimlash. Resurslar va imkoniyatlarning teng taqsimlanishi kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bu taqsimot jarayonida kam ta'minlangan va himoyasiz guruhlarga alohida e'tibor qaratiladi. Infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini tenglashtirish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash mumkin. 3. Ijtimoiy tenglikni kuchaytirish. Ijtimoiy adolat barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni talab qiladi. Ta'lim va malaka oshirish dasturlari, bandlikni oshirish siyosati orqali har bir fuqaro o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratiladi. Bu yondashuv kambag'allik chegarasida yashayotgan aholiga o'z hayot darajasini yaxshilash uchun real imkoniyatlar taqdim etadi. 4. Kambag'allarga ko'mak berish. Ijtimoiy yordam dasturlari orqali ijtimoiy adolatni amalga oshirish mumkin. Past daromadli oilalar uchun moddiy yordam, bepul ta'lim va tibbiy xizmatlar kabi dasturlar adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ayollar, bolalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha yordam mexanizmlarini joriy etish zarur. 5. Korrupsiyaga qarshi kurash. Ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun korrupsiya va resurslardan noqonuniy foydalanish holatlarini bartaraf etish muhimdir. Davlat tizimining shaffofligini oshirish va fuqarolar ishonchini kuchaytirish orqali resurslarning adolatli taqsimlanishiga erishish mumkin.

XULOSA

Kambag'allikni qisqartirish masalasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kambag'allikning turli nazariy qarashlari va zamonaviy yondashuvlari kambag'allikning murakkab tabiatini to'liq yoritib berishga yordam beradi. An'anaviy yondashuvlar asosan daromad yetishmovchiligiga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar kambag'allikni inson kapitali, turmush sifati va imkoniyatlar nuqtai nazaridan baholashni taklif etadi. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi, ijtimoiy inklyuziya yondashuvlari va xalqaro tajribalar zamonaviy usullar sifatida samarali qo'llanilmoqda. Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha innovatsion dasturlar va barqaror rivojlanish strategiyalari dolzarbdir. Bunda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimlarini

mustahkamlash va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvlarni amaliyotda tatbiq etish kambag'allikni qisqartirish yo'lida samarali natijalarga olib keladi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining olidini olish uchun uni qisqartirishning ta'sirchan vositalarini amaliyotga joriy etish, uni hisoblashning mezon va usullarini hamda uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

TAKLIF

Ta'lim sifatini oshirish va kasbga yo'naltirishni kuchaytirish

Maktab va kollej bitiruvchilarida zamonaviy kasblar (IT, dizayn, robototexnika, marketing) bo'yicha ko'nikmalarni erta shakllantirish.

Yoshlar uchun bepul qisqa muddatli kurslar sonini ko'paytirish.

Hududlarda kasbga yo'naltirish markazlari tashkil qilish.

2. Yoshlar bandligini kengaytirish

Mahallalarda "Yoshlar mehnat markazlari" ochish va ularda ish o'rgatish + bo'sh ish o'rinlari bilan bog'lash.

Tadbirkorlarga yoshlarni ishga olganda soliq imtiyozlari berish.

Talabalar uchun qo'shimcha daromad beruvchi kampuslar va loyihalar yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Abduraxmonov Q.X

2.Vohidov.R

3.Tursunov.B

4.Karimov.A

5.Mamatqulov .S